

Ogahiy g'azallarida ishq va pand nasihat ruhining ustunligi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti fors-ingliz guruhi 2-bosqich talabasi

Mustafoyeva Mushtariy Zohid qizi

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi kafedrasi katta òqituvchisi

Xudoynazarov I. B

Annotatsiya: Qomusiy bilim, teran tafakkur, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajriba sohibi bo'lgani, donishmand maqomiga yetgani uchun ham shoirning ko'plab bayt-u misralari hikmatday, xalq maqollariday hatto pand - nasihatdek jaranglaydi. Ba'zi g'azallari esa butunisicha pand - nasihat asosiga qurilgan. Ushbu maqolada ham Ogahiyning pand - nasihat ruhidagi g'azali va g'azallaridagi ishq masalasiga e'tibori haqida bayon etilgan.Bilamizki, Ogahiy ijodining salmoqli qismini ishq- muhabbat mavzusi, oshiq va ma'shuqa obrazlari boyitib turadi.

Kalit so'zlar: Qomusiy olim, sheriy janrlar, Lutfiy, Alisher Navoiy, Ogahiy salaflari, mumtoz adabiyot

Mutafakkir shoir, yetuk muarrix, zabardast mutarjim sifatida XIX asr o'zbek adabiyoti tarixida katta o'rinn tutgan Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy 1809-yili Xiva xonligida miroblik vazifasida ishlab kelganlar.Amakisi - mashhur shoir va muarrix Shermuhammad Munis ham mirob edi. Uch yoshida otasidan erta yetim qolgan Muhammad Rizo uning qo'lida tarbiyalanadi.¹ Ogahiyning kichik she'riy janrlar: ruboiy, tuyuq, fard, kabi shakllarda ham benazir ekanligiga guvoh bo'lamiz.Ogahiy salaflari Lutfiy , Navoiy, Bobur, Fuzuliy hamda Munis kabi mumtoz adabiyotimiz yorqin siymolari an'analarini davom ettirdi, rivojlantirdi,yangi badiiy kashfiyotlar bilan boyitdi.Uning ijodi shoirlarimizning bir necha avlodni uchun mahorat maktabi bo'lib xizmat qiladi

Kishikim toleyi farxundavu baxti humoyundur
Na ishkim qilsa maqbul-u na so'z kim desa mavzundur.
Musallamdur anga zuhd-u fano-u faqr atvori-
Ki, oldig'a na kelsa rozi-yu masrur-u mammundur.
Haqiqatda gado andoq muazzaz podshohdurkim,
Muqassir farshi yer sathi, muhaqaar qasri gardundur.
Hazar qil, ey g'aniy, bo'lma haris amvol jam'ig'a-

¹ Jamolning jilvasi Toshkent Ozbekiston 2016

Ki, bo'lg'ay zillati Qorung'a bois hirsi Qorundur.
Takabbrubodasin ichmakdin e'roz aylakim, shayton
Bu may kayfiyatidin to abad mardud mal'undur.
Chu gardun ofarinish ichra izhor etti sarkashlik,
Bu fe'lidin tun-u kun zor-u sargardon-u vojundur.
Bu gulshan sayrin etsang, bosma gustoxona tufroqni-
Ki har gom ostida bir paykari ozoda madfundur.
Necha dono esang ham urma g'ayb asrоридин damkim,
Oning fikrida ojiz yuz Arastu ming Falotundur.
Agar muhtoj esang, hojatravolig' ista ul shahdin-
Ki, shahlar ollida oning gadoyi zor-u mahzundur.
Tong ermas, bo'lmasam bir lahza hosid makridin emin-
Ki, shaytondin adovat toabad odamg'a maqrundur.
Bori xalq o'lsa dushman Ogahiyg'a zarracha g'am yo'q-
Ki oning homi-yu g'amxorasi Xalloqi bechundur.

Ushbu g'azalda Ogahiy butunicha pand-nasihat ruhida yozgn bo'lib har bir bayti da'vatdek yangraydi. " So'z ", " ganj ", " ehtiyoj", " arzimas" radifli, " Kishikim, tole'yи farxundav-u baxti humoyundur", " Xarob o'lsun, ilohi gumbazi davrori charxi dun" misralari bilan boshlanadigan g'azallari bus-butunicha pand- nasihat ruhida yozilgan. ²

Jamiyatda, hayotda sevgiga munosabat dastlab Ogahiy lirkasining umumiyy ruhida hazinlik, nadomat motivini ustun qiladi. Oshiqlar ko'pincha yoriga yetolmaslik xususida chuqur hayajon, nadomat bilan hasrat qiladi. Ogahiy lirkasi umumiyy ruhidagi bu hazinlik xursandchilikdan ko'proq hasrat motivlarini ustunligi shoirning shaxsiy tuyg'usi yoki qobiliyatidagi biron nuqson natijasi sifatida yuzaga kelgan emas: aksincha, bu Ogahiyini ulug' insonparvar o'z ijodida bevosita hayotdan oziqlangan, sevgi masalasida ham davrining asosiy xususiyatlarini ko'ra bilgan realist sifatida gavdalantiriladi³

.Xulosa qilish joizki, Ogahiy dunyoga , insonga tunganmas muhabbat, hayotga cheksiz mehr bilan qaraydi, ijtimoiy jarayonlarga qattiq qiziqadi. Shoir insonni hayot gozalliklarini, muhabbat shavq- zavqini tolib toshib tarannum etadi. Shuning uchun bolsa kerakki, uning gazallarida ozgacha dard, ozgacha ruh mavjud. Ishqiy gazallarida koproq yorga murojaat, uning vasliga yetmoqlik uchun oshufta konglini qurban qilishi bayon etilgan.

² Jamoling jilvasi Toshkent Ozbekiston 2016

³ Z. Qosimova Mumtoz adabiyot vakili Ogahiy ijodida ishq mavzusi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Jamoling jilvasi Toshkent Ozbekiston 2016
2. Jamoling jilvasi Toshkent Ozbekiston 2016 65- 66 betlar
3. Z.Qosimova Mumtoz adabiyot vakili Ogahiy ijodida ishq mavzusi